

2 „B“ - sinf

Fan nomi: Matematika

Dars mavzusi: Amallarni bajarish tartibi

Maqsad va vazifalari	Ta'limiy: O'quvchilarga mavzu haqida ma'lumot berish. Fanlararo bog'lash, mantiqiy fikrlash, mustaqil yechish, o'z fikrini bayon qila olishga o'rgatish. Tarbiyaviy: O'quvchilarga axloqiy fazilatlarni singdirish va ularni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga o'rgatish, kasbga qiziqtirish. Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va matematik tasavvurini shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy, og'zaki hamda yozma hisoblash malakalarini rivojlantirish Vazifalari: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va kengaytirish; mavzuga oid tarqatmalar va matnlar ustida mustaqil ishlashga undash.
O'quv jarayonining mavzusi	Yangi mavzu haqida tushuncha berish, bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Tipi: Yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi, sinovchi, umumlashtiruvchi. Usul: savol-javob, zanjir, aqliy hujum, reklama. Uslub: Yozma, og'zaki, ko'rgazmali, mustaqil ish. Jihoz: Darslik, o'quv qurollari, "Sog'lom bola" dasturi multimediyaga resurslari, AKT, mavzuga oid ko'rgazmalar, mustaqil ish varaqalari, rag'batlantiruvchi tarqatmalar. Baholash: 5 balli tizimda.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarning o'zlashtirishiga erishadi. O'quvchida darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Muammolarni yechadi. O'z ustiga mustaqil ishlaydi.
	O'quvchi: Yangi mavzuni o'zlashtiradi. Nutqi rivojlanadi, o'z-o'zini nazorat qiladi, berilgan amallar ustida ishlaydi. Mavzuni o'zlashtirish orqali bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Kelgusi reja	O'qituvchi: Yangi usullarni tadbiq etadi. O'z mahoratini oshiradi.
	O'quvchi: fanga bo'lgan qiziqish oshadi, qo'shimcha ma'lumotlar to'playdi.

Darsning blok - chizmasi

№	Dars bosqichlari	Vaqt taqsimoti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni: baholash	4 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

a). Salomlashish.

b).27-fevralda biz navbatchi bo'lamiz,

Sinfdagi tartibga javobgarlik qilamiz.

Matematika darsiga tayyordir barcha sinf

-Davomatchi?-100 foiz


O'tiribmiz hammamiz.

c). O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Dars mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish.

- Bugun darsimizda o'tilgan mavzularni mustahkamlaymiz, amallarni bajarish tartibini o'rganamiz, mantiqiy misol, masalalarni yechamiz.

Darsda quyidagi qoidalarga rioya qilishimiz kerak:





***Diqqat bilan tinglang va hamma narsani eshitasiz,
Sinchirovlik bilan kuzating va hamma narsani ko`rasiz,
O`ylang va hamma narsaga tushunasiz
Omad!***

II. O`tilgan darsni so`rash.

Uyga berilgan vazifani tekshirib, tahlil qilish va xatolar ustida ishlash

6-masala

Olcha daraxti-5m

O`rik daraxti-8m

Qaysi daraxt, qanchaga baland?

Yechish:

$$8-5=3(\text{m})$$

Javob : O`rik daraxti 3m ga baland

7-misol tekshiriladi.

$$\begin{aligned} (75 + 5) - 70 \\ (58 - 8) + 20 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} (57 + 3) : 10 \\ (43 - 3) : 10 \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} (59 - 50) \cdot 10 \\ (28 - 20) \cdot 10 \end{aligned}$$


O`tilgan mavzuni mustahkamlab olamiz.

-O`tgan darsda biz qanday mavzu ustida ishlagan edik?

1) Mantiqiy topshiriq:

“Sehrli qopcha”da 3 ta oq va 3ta ko`k shar bor .1tasi oq bo`lishi uchun qancha sharcha olishimiz kerak?

2)Quyidagi misollar zanjirini yeching:



III. Yangi dars bayoni :

-Bugun biz sizlar bilan amallarni bajarish tartibini o'rganamiz.

Quyidagi ifodalar qanday amallarni o'z ichiga olgan? Ularni tushuntirib bajaring:

$$27 + 3 - 5$$

$$50 - 20 - 9$$

$$12 : 2 \cdot 4$$

$$3 \cdot 6 : 2$$

Qo'shish va ayirishni yoki ko'paytirish va bo'lishni o'z ichiga olgan qavssiz ifodalarda amallar qaysi tartibda yozilgan bo'lsa, shu tartibda chapdan o'ngga qarab bajariladi.

Namuna: $46 + 4 - 8 = 50 - 8 = 42$

$$15 : 3 \cdot 4 = 5 \cdot 4 = 20$$

-Eng sevgan mashg'ulotingiz nima?

-Tikuvchining ish qurollariga nima kiradi?

-Qanday mato turlarini bilasiz?

Mantiqiy masala aytiladi:

-Maktab formasini tikish uchun 2m mato ketadi. Sinfdagi o'quvchilar formasi uchun necha metr mato ketgan?

2-masala qisqa sharti o'qitiladi:

Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
1-to'pda — 24 m chit 2-to'pda — 16 m chit	10 metr chit	? metr

To'liq masala tuziladi:

Tikuvchilik ustaxonasida 1-to'pda 24metr , 2-to'pda 16 metr chit bor.Ulardan 10 metr chit ishlatildi. Necha metr chit qolgan?

Yechish:

$$24 + 16 = 40(\text{m chit})$$

$$40 - 10 = 30(\text{m chit})$$

Javob:30m chit qolgan

Jismoniy tarbiya daqiqasi o'tkaziladi.

"Sog'lom bola" dasturidan foydalalaniladi.

-Amallar tartibini to'g'ri bajarib ifodalar qiymatini toping.

Mavzu: Amallarni bajarish tartibi

$2 \cdot 4 : 8 =$	11
$3 + 5 - 2 =$	22
$6 + 6 - 5 =$	14
$7 \cdot 3 : 1 =$	6
$8 + 8 + 2 - 4 =$	2
$5 : 5 + 5 \cdot 2 =$	21
$4 + 4 - 3 + 2 - 5 =$	7
$9 + 9 + 10 - 6 =$	1

Tekshirish

Taqqoslashga doir misollar bajariladi

3-misol


$73 + 18 > 91 - 45$	$80 - 35 = 25 + 20$
$91 > 46$	$45 = 45$
$57 - 26 < 32 + 29$	$24 + 36 > 60 - 54$
$31 < 61$	$60 > 6$

IV . Yangi darsni mustahkamlash:

- Bozor nima?
- Tovar nimaga ayirboshlanadi?
- Qanday bozor turlarini bilasiz?
- Bugun siz bilan poliz ekinlari sotiladigan dehqon bozoriga yo`l olamiz.

Sahna ko`rinish:

3 ta dehqon bobo xaridorlarga o`z mahsulotlarini maqtaydilar. Vitaminlarga boy ne`matlardan sotib olishga undaydilar.



4-masala



4 kg



6 kg



7 kg

$4+6, 4+7, 6-4, 7-6, (4+6)+7, (4+6)-7$ ifodalari qanday ma'no anglatishini tushuntirish topshirig'i beriladi.

Sinf o'quvchilari 6 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga ifodalar asosida masala tuzish taklif etiladi. "Javoblar namoyishi" o'tkaziladi.

V. Dars yakuni:

-baholash:

-o'quvchilar yig'ilgan ballarini hisoblaydilar.

-Darsda nimalarni o'rgandik?

- Bugungi dars sizga yoqdimi?

-Kayfiyatingiz qanday?

VI.Uyga vazifa:

Darslikning 146-beti, 5-masala.

Uyga vazifa:

5-masala

5 ta kalava jundan -1 ta nimcha
10 ta kalava jundan -? ta nimcha

6-misol

$$67 - 40 + 3$$

$$24 + 12 - 6$$

$$8 \cdot 3 : 4$$

$$20 + 18 - 6$$

$$28 - 13 - 5$$

$$12 : 2 \cdot 3$$



O 'qigan emas, uqqan afzal.